



BUYUK IPAK YO'LIDA JOYLASHGAN QADIMIY SHAHARLAR TARIXI

G'ayratova Nozigul

Qosimova Dinora

Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi 1-kurs talabalari

nozigulgayratova@gmail.com

dinoraqosimova89@gmail.com

ABSTRACT: This article examines the emergence, formation, branches, historical significance, and cultural influence of the Great Silk Road. The article provides information on how the cities located along the Silk Road can strengthen trade relations with each other and develop them.

KEY WORDS: Great Silk Road, Meridian Road, Mesopotamia, Eastern Turkestan, Da Sidao, Dunhuang.

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Buyuk ipak yo'lining paydo bo'lishi, shakllanishi, tarmoqlari, tarixiy ahamiyati, madaniy tasiri ko'rib chiqiladi. Maqolada ipak yo'li bo'ylab joylashgan shaharlar bir biri bilan savdo aloqalarini kuchaytirishi va ularni rivojlanishi haqida ma'lumotlar beriladi.

KALIT SO'ZLAR: Buyuk ipak yo'li, Meridianal yo'l, Mesopatamiya, Sharqiy Turkiston, Da sidao, Dunxuan.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются возникновение, становление, ветви, историческое значение и культурное влияние Великого Шелкового пути. В статье представлена информация о том, как города,



расположенные вдоль Шелкового пути, могут укреплять торговые отношения друг с другом и развивать их.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Великий Шелковый путь, Меридианный путь, Месопотамия, Восточный Туркестан, Да Сидео, Дуньхуан.

KIRISH. Buyuk ipak yo'li mil.avv. II ming yillikdan- XVI asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Dastlab u buyuk meridianal yo'l deb atalgan. Unga 1877-yilda nemis geografi F.Rixtgofer tomonidan "Buyuk ipak yo'li" nomi berilgan. Buyuk ipak yo'li 12 km bo'lib, u Sariq dengizdan boshlab Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya orqali O'rtayer dengizigacha borgan.

So'nggi davrdagi asarlarda Sharq va G'arbni, ya'ni Osiyo, Yevropa va Afrika qit'alarini bog'lovchi yer yuzi va dengiz yo'llarini "ipak yo'li" deb atash ham adabiyotga kirib keldi. Bunday misollarni rus va xitoy adabiyotida uchratish mumkin. Ammo xitoy ilmiy adabiyotida mualliflar bir ovozdan qadimgi Changandan Taklamakondan cho'li atrofi, Pomir dovonlari, O'zbekiston, Turkmaniston, Eron va Turkiya shaharlari orqali Rimga borgan karvon yo'lining eng qadimiy "Buyuk ipak yo'li" ("Da sidao") deb e'tirof etilmoqdalar. Uning asosiy qismi sharqda Xuanxe daryosining bo'ylaridan boshlab g'arbgacha qarab cho'zilgan. [1]

Mil.avv 138 yilda Xitoy imperatori U-Di Chjan Syanni davlat xavfsizligiga daxl qilayotgan xunnlarga qarshi ittifoqchi topish uchun Farg'ona vodiysiga yuborgan. Yo'lda u xunlar qo'lga asir tushadi va u yerda 10 yil davomida yashashga majbur bo'ladi. U tutqunlikdan qochishga muvaffaq bo'ladi, hamda Tyanshanning baland dovonlaridan o'tib, Issiq ko'lga so'ngra Norin daryosi bo'ylab Farg'ona vodiysiga yetib kelishga musharraf bo'ladi. Farg'onaga yetib kelgach, bu yerlik hukmdorni xunnlarga qarshi kurashga dav'at etadi. Bu yo'lda Sian, Dunxuan, Yorkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv va boshqa bir qancha qadimiy shaharlar joylashgan.[2]



ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYASI. Ushbu maqoladagi ma'lumotlar Ablat Xo'jayevning "Buyuk ipak yo'li", Mamarahimova Bashoratning "Buyuk ipak yo'li- sivilizatsiyalararo muloqat yo'li", O'UM "Buyuk ipak yo'li: Tarix va hozirgi zamon" nomli kitoblar va manbalardan foydalanilgan. Bu kitoblarda Buyuk ipak yo'lining tarmoqlari, shakllanishi, savdo aloqalarining kuchayishi, va O'rta Osiyo hududidan o'tganligining ahamiyati kattadir.

Manbashunoslik, matnshunoslik, tahliliy, taqqoslash.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti tarixida savdo karvoni yo'llari hamisha muhim ahamiyat kasb etgan. Kishilik jamiyati tashkil topib, ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar yuzaga kelishi bilan dastlab qishloqlararo, so'ngra shaharlar va mamlakatlararo aloqalar o'rnatilgan. Bunday o'zaro aloqalar tufayli uzoq-yaqin savdo va karvon yo'llari shakllangan. O'troq jamoalar, qabilalar, elatlar va xalqlarni hududiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan birlashtirgan davlatlar aloqa yo'llarining qaror topishi, kengayishi yoki barham topishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Arab tarixchilarining asarlarida Sharq "shaharlar onasi" deb atalgan Marvda ikki tarmoq, shimoliy va janubiy biri biriga qo'shilgan. Bu erdan katta magistral yo'l dastlab Bobilga undan Bog'dodga, so'ngra Suriyaga borgan va u erdan kemmalarga yuklar orilib, Misr, Vizantiya, Italiya va boshqa O'rta yer dengizi shahar va davlatlariga tarqalgan. Bu mahsulotlar orasida asosan Xitoy ipagi, hind va indoneziya zirovorlari, zargarlik buyumlari, paxta matolar, fil suyaklari, olmos kabilar asosiy o'rin egallashgan. Buyuk Ipak yo'lidagi savdo haqida so'z yuritilar ekan tabiiy ravishda pul to'lov masalasiga to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Dastlabki vaqtlarda ya'ni ilk o'rta asrlarda to'lov birligi vazifasini ipak mato bajargan. Ipak mato aynan tillaning qiymatini belgilab bergan, unga Xitoyning o'zida ham dori – darmon, kitoblar, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarni ayriboshlash mumkin bo'lgan. Xatto, ipak mato orqali turli soliq va majburiyatlardan ozod bo'lish ham mumkin edi. Uning



yordamida qilgan jinoyati uchun jazolardan qutulish uchun tavon sifatida ham foydalanilgan. [3]

XULOSA: _Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Buyuk Ipak yo'li qadimdan Sharq va G'arb o'rtasidagi aloqalarni ta'minlovchi muhim savdo yo'li bo'lgan. U miloddan avvalgi II asrdan eramizning XV asrigacha faoliyat ko'rsatgan va ipak, qimmatbaho toshlar, shisha buyumlar, zargarlik buyumlari, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar almashinuvi uchun xizmat qilgan.

Bu yo'l nafaqat savdo-sotiqni rivojlantirdi, balki madaniy, ilmiy va texnologik almashinuvga ham katta hissa qo'shdi. Turli dinlar, tillar, urf-odatlar va g'oyalar Ipak yo'li orqali tarqaldi. Bu yo'l bo'yida ko'plab shaharlar va karvonsaroylar qurildi, ular o'z davrining yirik savdo va madaniy markazlariga aylandi. Buyuk Ipak yo'li tarixiy jihatdan juda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. U qadimiy davrlarning turli xalqlari o'rtasidagi aloqalarni namoyish etadi va ularning madaniy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan.[4]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ablat Xo'jayev "Buyuk ipak yo'li" Toshkent-2007 –yil.
2. Mamarahimova Bashorat "Buyuk ipak yo'li-sivilizatsiyalararo muloqat yo'li" Toshkent- 2010-yil
3. O'UM - "Buyuk ipak yo'li: Tarix va hozirgi zamon" Toshkent -2019-yil.
4. A. Asqarov " O'zbekiston tarixi" Toshkent- 1994-yil.
5. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. *Oriental Journal of Social Sciences*, 69-72.
6. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 538-546.



7. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРИШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.
8. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.
9. Nurbek B & Ruxshona A (2023) AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 11(10) 25-29
10. Begaliyev, N., & Qizi, M. R. S. (2024). AMIR TEMUR DAVRIDA TANGA PUL MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 35(1), 204-207.
11. Normamatova, M. (2024). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUYUK IPAK YO ‘LIDAGI DAVLATLARARO ALOQALAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 180-184.
12. Begaliev, N. (2024). THE HISTORY OF THE SARDOBAS: ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA KHANATE. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 11(62), 268-270.
13. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(03).
14. Azamova S. EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
15. Azamova S. UMUMTA’LIM MAKTAB O ‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
16. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.